



NAMANGAN VILOYATI UYCHI TUMANI HOKIMINING QARORI

2026-yil 30-aprel

163-6-86-Q/26

Uychi tuman hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tadbirkorlik faoliyatiga noqonuniy aralashuvlarni cheklash va nazorat tadbirlarining shaffofligini oshirish chora- tadbirlari to‘g‘risida” 2026-yil 17-apreldagi PF–63-sonli Farmoni ijrosi hamda viloyat hokimining 2026-yil 23-apreldagi 204-6-0-Q/26-sonli qarori haqida

Tadbirkorlik faoliyatiga noqonuniy aralashuvlarga chek qo‘yish, korrupsion xavflarni kamaytirish, tadbirkorlar va davlat organlari o‘rtasidagi muloqotda shaffoflik va hisobdorlikni ta‘minlash, shuningdek, qulay biznes muhitini rivojlantirish hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tadbirkorlik faoliyatiga noqonuniy aralashuvlarni cheklash va nazorat tadbirlarining shaffofligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2026-yil 17-apreldagi PF–63-sonli Farmonini hamda viloyat hokimining 2026-yil 23-apreldagi 204-6-0-Q/26-sonli qarori tumanda ijrosini ta‘minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 21¹-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 17-apreldagi PF–63-sonli Farmoni ijrosi yuzasidan, viloyat hokimining 2026-yil 23-apreldagi 204-6-0-Q/26-sonli rahbarlik va amalda ijrosini ta‘minlash uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 17-apreldagi PF–63-sonli Farmoni bilan:

2026-yil 1-iyuldan boshlab amaldagi funksiyalariga qo‘shimcha ravishda quyidagi yangi imkoniyatlarga ega “Yagona davlat nazorati” axborot tizimi va uning mobil ilovasi ishga tushirilishi:

tadbirkorlik subyekti faoliyat yuritadigan joydagi tuman (shahar) hokimi, mahalla raisi, hokim yordamchisi, profilaktika va soliq inspektorlari haqida ma’lumot olish va ularga murojaat qilish (chat) tizimini yaratish;

o‘tkazilgan tekshiruvlar va nazorat tadbiri hisoblanmaydigan muloqotlar natijasi bo‘yicha davlat xizmatchisi xatti-harakatlariga baho berish;

(v) tekshirish huquqi bo‘lmagan yoki tekshiruvga chiqishi belgilanmagan nazoratchi haqida real vaqt rejimida tadbirkorni xabardor qilish;

(g) tadbirkorlik subyektlari faoliyatini tekshirish huquqini beruvchi maxsus guvohnomalarning elektron shaklini yuritish;

(d) tekshirish o‘tkazish tartibiga rioya qilmaslik holatlarini avtomatik tarzda aniqlash;

(j) tekshiruvlarni tadbirkorlik subyektidagi maxsus QR-kod yoki soliq to‘lovchining identifikatsiya raqami (jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqami) orqali ro‘yxatga olish;

(z) tadbirkorlik subyekti faoliyat yuritadigan hududda tashkil etilishi kutilayotgan davlat organlari mansabdor shaxslarining ommaviy qabullari haqida xabardor qilish;

quyidagilar 2026-yil 1-avgustdan boshlab joriy etilishi:

nazorat qiluvchi va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari, shu jumladan, huquqni muhofaza qiluvchi organlar mansabdor shaxslari va xodimlari (keyingi o‘rinlarda – davlat xizmatchisi) hamda tadbirkorlik subyektlari o‘rtasida nazorat tadbiri hisoblanmaydigan muloqotni “Yagona davlat nazorati” axborot tizimida hisobga olish tartibi;

“Yagona davlat nazorati” axborot tizimida tadbirkorlik subyektlari faoliyatida o‘tkaziladigan barcha tekshiruvlarni, shu jumladan, qo‘zg‘atilgan jinoyat ishlari doirasida o‘tkaziladigan tekshiruvlar va profilaktika tadbirlarini ro‘yxatga olishni va nazorat tadbiri hisoblanmaydigan muloqotlarni hisobga olishni ta’minlovchi “Biznes himoya” QR-kodi;

belgilanishicha:

davlat xizmatchisi davlat organi nomidan yoki o'zining xizmat mavqeidan foydalangan holda tadbirkorlik subyekti faoliyat yuritadigan binoga nazorat yoki profilaktika tadbirini o'tkazish maqsadisiz tashrif buyurishi yoxud tadbirkorlik subyektini boshqa joyga chaqirishi nazorat tadbiri hisoblanmaydigan muloqot (keyingi o'rinlarda – muloqot) sifatida baholanishi,

bunda:

qonunchilik hujjatlarida belgilangan talablardan kelib chiqib hamda davlat xizmatchisining zimmasiga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirish uchun tadbirkorlik subyekti bilan amalga oshirilgan muloqot asosli hisoblanadi;

manfaatlar to'qnashuvi yoki korrupsiyaviy xavf-xatarlarga olib keluvchi, shuningdek, mazkur kichik bandning "i" xatboshisida bayon etilgan holatlarga kirmaydigan muloqot asossiz hisoblanadi;

Tadbirkorlik subyektlarining jamoat birlashmalari tomonidan tashkillashtirilgan ochiq muloqot shaklidagi uchrashuvlar hamda sayyor qabullarda, shuningdek, davlat xavfsizligiga oid kechiktirib bo'lmaydigan va tezkor-qidiruv tadbirlari davomida davlat xizmatchisining tadbirkorlik subyekti vakili bilan muloqotga kirishishi mazkur kichik bandda nazarda tutilgan muloqot sifatida tavsiflanmaydi;

"Yagona davlat nazorati" axborot tizimiga muloqot haqidagi ma'lumotlarni kiritish davlat xizmatchilari uchun majburiy hisoblanadi va ushbu talabga rioya etmaganlik tegishli tartibda xizmat tekshiruvi o'tkazilishi uchun asos bo'ladi;

bo'lib o'tgan muloqotning asosli yoki asossiz ekanligiga baho berish tegishli davlat organining korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasi yoki ushbu funksiyani amalga oshirish yuklatilgan bo'linma yoxud mansabdor shaxs tomonidan amalga oshiriladi;

"Yagona davlat nazorati" axborot tizimiga kiritiladigan ma'lumotlar Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (keyingi o'rinlarda – Biznes-ombudsman) va Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan doimiy monitoring qilib boriladi, qonunchilikda belgilangan hollarda axborot huquqni muhofaza qiluvchi organlarga taqdim etiladi;

ayni bir tadbirkorlik subyekti bilan bir yil davomida ikki va undan ortiq marotaba asossiz muloqotga kirishgan davlat xizmatchisiga quyidagi choralar qo'llanadi:

davlat organining korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasi tomonidan xizmat tekshiruvi o'tkaziladi;

ayni shu tadbirkorlik subyektida o'tkaziladigan nazorat tadbirlariga oxirgi muloqot qayd etilgan sanadan e'tiboran o'n ikki oy davomida ishtirok etishiga yo'l qo'yilmasligi, mazkur taqiqqa rioya etmaslik tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini

tekshirish tartibini buzish hisoblanishi hamda tekshirish huquqini beruvchi maxsus guvohnoma amal qilishining uch oygacha to'xtatib turilishiga olib keladi;

tadbirkorlik subyektlari faoliyatini tekshirish va ular bilan muloqot qilish tartibini surunkali tarzda buzuvchi shaxslar olti oy muddatga Insofsiz tekshiruvchilar reyestriga kiritilishi;

davlat xizmatchisi hamda tadbirkorlik subyekti o'rtasida bo'lib o'tgan nazorat tadbiri hisoblanmaydigan muloqotni "Yagona davlat nazorati" axborot tizimida hisobga olish va monitoringini yuritish sxemasi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

shunday tartib o'rnatilganki, unga muvofiq 2026-yil 1-avgustdan boshlab:

davlat nazorati tartibotlarini raqamlashtirish va shaffofligini oshirish doirasida: tadbirkorlik subyektlari faoliyatini tekshirishda ishtirok etadigan yoki tadbirkor bilan muloqotga kirishadigan davlat xizmatchilari "Yagona davlat nazorati" axborot tizimining mobil ilovasidan foydalanishlari majburiy etib belgilanadi;

"Yagona davlat nazorati" axborot tizimida tekshirish huquqini beruvchi maxsus guvohnomalarning elektron shaklini yuritish orqali uni qog'oz ko'rinishida rasmiylashtirish tartibi bekor qilinadi;

"Biznes himoya" QR-kodini joriy etishdoirasida:

tadbirkorlik subyekti tomonidan nazorat qiluvchi organ mansabdor shaxsiga Tekshiruvlarni ro'yxatga olish elektron kitobini taqdim etish tartibi bekor qilinadi;

nazorat qiluvchi organ mansabdor shaxsi tadbirkorlik subyekti faoliyatida tekshiruv o'tkazishdan oldin "Yagona davlat nazorati" axborot tizimining mobil ilovasi yordamida tadbirkorlik subyektidagi "Biznes himoya" QR-kodini skanerlash orqali tekshiruvni ro'yxatga oladi;

davlat xizmatchilari "Biznes himoya" QR-kodi orqali tekshirish yoki muloqot haqidagi ma'lumotni belgilangan tartibda "Yagona davlat nazorati" axborot tizimiga kiritmasa, tadbirkorlik subyektlari davlat xizmatchisini tekshiruv o'tkazish uchun o'z hududiga qo'ymaslik va muloqotga kirishmaslik huquqiga egaligi;

shunday tartib o'rnatilganki, unga ko'ra:

2026-yil 1-iyuldan boshlab tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazishda bir vaqtning o'zida avtomatik tarzda "Yagona davlat nazorati" axborot tizimida ularning shaxsiy kabineti kompozit tartibida ochiladi;

“Yagona davlat nazorati” axborot tizimidan ro‘yxatdan o‘tmagan yoki tekshiruv o‘tkazishga asos bo‘luvchi hujjatlarni tizimga kiritmagan yoxud maxsus guvohnomaga ega bo‘lmagan nazorat qiluvchi organning xodimi tomonidan tadbirkorlik subyektlari faoliyatida o‘tkazilgan tekshiruvlar noqonuniy hisoblanadi;

tadbirkorlik subyektlari faoliyatida o‘tkaziladigan tekshiruvlarga, shu jumladan, jinoyat ishi doirasidagi tekshiruvlarga nazorat qiluvchi organlardan jalb qilinadigan mutaxassislar tekshiruvlarda faqat tadbirkorlik subyektlari faoliyatini tekshirish huquqini beruvchi maxsus guvohnomaga ega bo‘lgan taqdirda ishtirok etishlari mumkin;

tashkiliy-huquqiy shakli va idoraviy bo‘ysunuvidan qat’i nazar davlat organi mansabdor shaxslari va mas’ul xodimlari tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlikka tortilishi;

tadbirkorlik faoliyatiga noqonuniy aralashuvlarni cheklash va ishbilarmonlik muhitini yanada rivojlantirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi” 2-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga 3-ilovaga muvofiq o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3.Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari – Iqtisodiyot va moliya boshlig‘i Q.Qo‘chqorov hamda tuman hokimining o‘rinbosari – investitsiyalar, sanoat va savdo boshlig‘i A.Abdullayev zimmasiga yuklansin.

Uychi tumani hokimi



Abdullayev M.A